



TINISH BELGILARINI O'RGANISH. PUNKTUATSIYA

Alimova Rano Xolboyevna

Toshkent shahri Shayhontohur tumanidagi 180 maktabning ona tili
fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6590236>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-may 2022

Ma'qullandi: 14- may 2022

Chop etildi: 28- may 2022

KALIT SO'ZLAR

*intonatsion, semantik,
punktuatsiya, morfema,
vergul, nuqtali vergul, ikki
nuqta.*

ANNOTATSIYA

Tinish belgilari (punktuatsiya)- muayyan tilda yozma nutqni to'g'ri, ifodali, mantiqli bayon qilishda ko'makchi boladi. Ushbu maqolada tinish belgilari ularning turlari hamda gaplarda ishlatilish o'rni haqida ma'lumotlar yoritilgan

Tinish belgilari yozishning muhim vositasidir. Tinish belgilari ko'rsatadi semantik, tizimli va intonatsion nutqning artikulyatsiyasi. Ma'lumki, tinish belgilari yozma matnni o'quvchi tomonidan idrok etilishini osonlashtirish uchun uni tartibga solibgina qolmay, balki matndagi ma'lumotlarning bir qismini to'g'ridan-to'g'ri uzatadi. Xususan, ba'zan tinish belgilari ma'noni ifodalash orqali matnning to'g'ri talqinini tanlashning yagona mavjud vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Tinish belgilari - muayyan tilda yozma nutqni to'g'ri, ifodali, mantiqli bayon qilishda, uni ixchamlashda, yozma nutq qismlari (gap bo'laklari)ning o'zaro mantiqiygrammatik munosabatlarini ko'rsatish uchun xizmat qiladigan muhim grafik vositalar. Tinish belgilari markaziy, asosiy belgilar tizimiga (harflar va tinish belgilari) mansub bo'lib, u qo'shimcha, yordamchi belgilar tizimidan (raqamlar,

turli fanlarga oid ilmiy belgilar, bosmaxona belgilari) ma'lum jihatlari bilan farq qiladi. Tinish belgilarining yozuvda qo'llanishi o'ziga xos tizimga ega. Bu tizim — tinish belgilari miqdori, qo'yilish tartibi va qo'llanish prinsiplari yig'indisi — punktuatsiyani vujudga keltiradi. Bular yozuvning boshqa vositalari (harflar, raqamlar, diakritik belgilar) xamda til birliklari (so'zlar, morfemalar) bilan ko'rsatish mumkin bo'lmagan turlicha fikriy munosabatlar va psixologik holatlarni ifodalashda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, yozma nutqning tushunilishini osonlashtiradi. Tinish belgilari ning asosiy vazifasi nutqning mazmunini bo'linishini ko'rsatish, shuningdek, uning sintaktik tuzilishi va intonatsion jihatini aniqlashga yordam berishdir.

Hozirgi o'zbek yozuvida Tinish belgilari soni 10 ta: nuqta, so'roq belgisi undov belgisi, vergul, qavs, tire, ko'p nuqta, nuqtali



vergul, qo'shtirnoq. Ularning aksariyati 19-asr 2yarmida ayrim gaz va toshbosma kitoblarning nashr etilishi bilan paydo bo'lgan.

Tinish belgilari o'z vazifasiga ko'ra, 2 ga bo'linadi: a) chegaralovchi Tinish belgilari — muayyan sintaktik tuzilmaning yoki umuman gapning chegarasini bildirish, bironbir gap bo'lagini intonatsionmazmunij jihatdan ajratib ko'rsatish, nutq qaratilgan shaxs yoki predmet nomi qamrab olingan, shuningdek, yozuvchi (so'zlovchi)ning sub'yektiv munosabati ifodalangan sintaktik tuzilma chegarasini ko'rsatish uchun xizmat qiluvchi tinish belgilari: qavs, qo'shtirnoq, yagona qo'shaloq belgi sifatida qo'llanuvchi vergul, ayni shu vazifadagi tire; b) ajratuvchi tinish belgilari — mustaqil gaplarni, ularning qismlari (bosh va ergash gaplar, bog'langan va bog'lovchisiz qo'shma gaplarning predikativ qismlari)ni, gapning uyushgan bo'laklarini, birgalik ergashishli qo'shma gagsharni, gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini, nutqning bo'linganligini ko'rsatuvchi tinish belgilari: nuqta, so'roq va undov belgilari, vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, tire, ko'p nuqta. Ba'zi Tinish belgilari ham chegaralash, ham ajratish vazifalarini namoyon eta oladi. Tinish belgilari tuzilish jihatdan ham 2 ga bo'linadi: a) bir elementli tinish belgilari — vergul, tire, nuqta; b) ko'p elementli tinish belgilari Bu guruh, o'z navbatida, 2 elementli (so'roq, va undov belgilari, ikki nuqta, nuqtali vergul, qavs), 3 elementli (ko'p nuqta) va 4 elementli (qo'shtirnoq) tinish belgilariga ajraladi. Qo'llanish o'rniga ko'ra, Tinish belgilari 3 guruhga bo'linadi: gap oxirida qo'llanadigan tinish belgilari (nuqta, so'roq va undov belgilari), gap o'rtasida qo'llanadigan tinish belgilari

(vergul) va aralash, ya'ni gapning turli o'rinlarida qo'llaniladigan tinish belgilari (tire, ikki nuqta, qo'shtirnoq, qavs, kup nuqta).

Tinish belgilari ning qo'llanish usuli va tartibi punktuatsiyaning mantiqiygrammatik, uslubiy va differensiatsiya (farqlash) prinsiplari asosida belgilanadi.

Punktuatsiya (lot. punctum — nuqta; kichkina dog') — 1) alifbodan tashqari bo'lgan grafik belgilar (tinish belgilari) tizimi bo'lib, grafika va orfografiya (imlo) bilan birgalikda yozma tilning asosiy vositalarini tashkil etadi. Punktuatsiyaning asosiy vazifasi yozma (bosma) matnni qismlarga ajratish, grafik jihatdan shakllantirishdir; 2) yozma matnni punktuatsion rasmiylashtirishni tartibga soluvchi, har bir til uchun tarixan shakllangan qoidalar, me'yorlar; 3) Punktuatsiya tizimi qonuniyatlarini, shuningdek, tinish belgilarining qo'llanish me'yorlarini o'rganadigan tilshunoslik bo'limi.

Muayyan milliy til grafikasi (yozuvi) 2 xil vositadan: harflar (alifbo) va tinish belgilari (punktuatsiya) tizimidan iborat. Punktuatsiya tarixi, punktuatsion tizimniig paydo bo'lishi, tinish belgilarining soni turli tillarda turlicha namoyon bo'ladi. Masalan, punktuatsion tizim hozirgi ma'no va ko'rinishda G'arbiy Yevropa tillari yozuvlarida 15—16-asrlarda, rus yozuvida 18-asr da, o'zbek yozuvida esa 19-asrning 2-yarmida paydo bo'lgan. Yoki ingliz tili punktuatsion tizimida apostrof va defis ham tinish belgisi hisoblanib, ularning jami 12 ta bo'lsa, hozirgi o'zbek punktuatsiyasi quyidagi 10 ta tinish belgisidan iborat: vergul, ikki nuqta, ko'p nuqta, nuqta, nuqtali vergul, so'roq belgisi, tire, undov belgisi,



qavs, qo'shtirnoq. Punktuatsiya ning
qo'llanishida ham tillararo tafovut bo'lishi
mumkin, Masalan, ispan tilida so'roq va

undov belgilari gapning boshida va oxirida
qo'yiladi.

References:

1. Abdurahmonov G., Punktuatsiya o'qitish metodikasi, T., 1968; Nazarov K., O'zbek tili punktuatsiyasi, T., 1976.
2. Abduvahob Madvaliyev, Ne'mat Mahkamov. O'zMilliy Ensiklopediyasi, 2000-2005
3. Rahmatullaev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. T.2006
4. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T. 2005.